

KOVRAK O‘SIMLIGINING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI

A. X. Mammadiyev

O‘qituvchi, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Denov

D.R. Bo‘riyeva

Magistrant, Denov tadbirkorlik va pedagogika isntituti, Denov

Annotatsiya: Ushbu maqolada kovrak o‘simligining biologik, shifobaxshlik xususiyatlari hamda Surxondaryo viloyatida tabiiy holda o‘sovchi turlari haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Hom- ashyo, endem, *F. foetida*, *F. karatavica*, *F. sumbul*, *F. tadshikorum*, *F. kuhistanica*, monokarp, polikarp, efir, kraxmal.

Respublikamiz o‘simlik resurslariga juda boy. Tabiatda shifobaxsh xususiyatga ega bo‘lgan, xalq xo‘jaligiga foyda keltiradigan, insonlarning ehtiyojini qondiradigan o‘simliklarni izlab topish ularni o‘rganish va muhofaza qilish chora tadbirlarni ishlab chiqish, fan yutuqlarini amalda qo‘llash muhim ahamiyatga egadir. Apiaceae oilasiga mansub *Ferula L.* turkumi turlari shunday o‘simliklar guruhiga kirib, ular efir moyli, yem-xashak, asalchil, shifobaxsh, kraxmal beruvchi, aromatik, ozuqabop va texnika o‘simliklari hisoblanadi. Respublikamizda kovrak etishtirishni jadal rivojlantirishni ta‘minlash bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev Surxondaryo viloyatiga tashriflaridan birida kovrak etishtiruvchilar assotsiatsiyasini tuzish taklifini o‘rtaga tashlagan edilar. Darhaqiqat, yurtimizda kovrak dorivor o‘simligini tabiiy ravishda keng tarqalganligi va qo‘shimcha suniy ekib ko‘paytirish imkoniyatlarining mavjudligini inobatga olib, keng istiqbolli rejalarni nazarda tutgan edilar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 martdagi —Respublikada kovrak plantatsiyalarini tashkil etish va ularning xom -ashyosini qayta ishlash hajmlarini ko‘paytirish hamda eksport qilish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-3617 Qarori asosida kovrak plantatsiyalarini tashkil etish va ularning xom -ashyosini qayta ishlash uyushmasi tashkil etilgan va hozirgi kunda keng ko‘lamli kovrak plantatsiyalari yaratilmoqda. Kovrak (*Ferula L.*) turkumi turlari vakilari Ziradoshlar (*Apiaceae L.*) oilasiga mansub bo‘lib, ular O‘rta Osiyoda 114, O‘zbekistonda 48 turi uchraydi. Bu turkum vakillarining shundan 32 turi monokarp, 16 turi polikarp turlardir. Shundan 27 turi Pomir Oloy, 21 turi Tyan-shan endemigi hisoblanadi. Turkum turlarining 8 turi cho‘lda, 4 turi cho‘l-adirda, 9 turi adirda, 12

turi adir-tog'da, 23 turi tog'da, 1 turi adir-tog'-yaylovda, 6 turi tog'-yaylovda uchraydi.

Abu Ali ibn Sinoning mashxur "Tib qonunlari" nomli kitobida kovrak o'simligining foydali xususiyatlari va o'simlikdan ajratib olingan shira va smolalar insonlarda uchraydigan bir qator kasalliklarni davolashda juda ahamiyatli hisoblanishini ta'kidlab o'tgan. Shulardan, bo'g'inlardagi barcha og'riqlarini davolashda, ovqatni xazm qilish jarayonini kuchaytirishda, gijjani haydovchi vosita sifatida ham yaxshi natija berish xususiyatini alohida ta'kidlab o'tgan.

Hozirgi kunda kovrakning shifobaxsh xususiyatlari ko'pligi sababli tibbiy maqsadlarda keng qo'llaniladi. Oshqozon-ichak yo'lini shlaklar va gijjalardan tozalashdan tashqari, boshqa kasalliklarni davolashda juda foydali hisoblanadi. Angina, bronxit va nafas a'zolari shamollashi bilan kechuvchi boshqa kasalliklarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Endemiklar o'simliklar - ular alohida va ma'lum bir hududda tarqalgan, boshqa hududda ularni uchratib bo'lmaydigan o'simlik turlari hisoblanadi. O'zbekiston florasida 4500 dan ortiq o'simlik turlari mavjud bo'lsa, ularning 20% i endemik hisoblanadi. Ana shunday o'simliklardan biri bu Ferula L. turkumining ko'plab vakillari jumladan, ferula tadshikorum turi endemik turdir. Ferula L. tadshikorum O'zbekiston hududida Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida endemik o'simlik sifatida uchratish mumkin. Tadqiqotlar natijasida Surxondaryo viloyatida Kovrak (Ferula L.) turkumiga oid 13 ta turlar aniqlandi. F. foetida, F. karatavica, F. sumbul, F. tadshikorum, F. kuhistanica va boshqalar shular jumlasidandir. Bu turlar ikkiga ya'ni monokarp va polikarp turlarga bo'lib o'rganiladi. Aniqlangan Kovrak (Ferula L.) turkumi turlari - ko'p yillik, o'tsimon, geofit o'simlik. Mavsumiy rivojlanish ritmi bo'yicha ular efemeroidlardir. Kovrak (Ferula L.) turkumiga oid monokarp turlarda asosiy novdaning o'sishi monopodial tarzda bo'ladi: dastlabki 5-6-yillarda qisqa vegetativ davrda faqat to'pbarglar hosil qilib – gullash va urug'lash yilida esa yerustki ortotrop poya hosil qiladi. Bu poya (novda) politsiklik kategoriyasiga kirib, o'simlik esa yarim to'pbarg hosil qiluvchi guruhga kiradi. Ular asosan bir, ba'zi hollarda, poya shikatslanganda 2 dan 6 tagacha generativ novda hosil qiladi. Surxondaryo viloyatida o'sadigan Ferula turkumi turlari O'simlikning yer ostki organlari oziq moddalarini zahira (zapas) holda saqlaydigan ildiz va ildizpoyadan iborat bo'lib, ular tunganaksimon yo'g'onlashgan. O'simlik poyalarining balandligi har xil: gigant-poyasi 3 metrgacha etadigan turlardan (F. gigantea, F. foetida, F. penninervis, F. kuhistanica, F. malacophilla, F. varia, F. sumbul) tortib, pastki (karlik) –bo'yi atigi 30 sm ga etadigan turlar (F. karataviensis, F. nuda) ham uchraydi. Har bir turning balandligi ob-havo, ekologik sharoitga qarab ham

o'zgarib turishi xam aniqlandi. Barglari asosan to'pbarglardan iborat bo'lib, ular ildiz bo'g'zida joylashadi. Tabiiy hududlarda o'suvchi kovrakni esa asrab- avaylash, yo'qolishiga olib keluvchi har qanday harakatlarga yo'l qo'ymaslik bugungi kunda dolzarb masaladir. Shundan kelib chiqib viloyatimizda kovrak etishtirish uchun qulay iqlim sharoiti mavjudligi, kam sarfli ekinligi bois plantasiyalar tashkil qilib, mavjudlarini yanada kengaytirish alohida ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublika Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 apreldagi 229- sonli qarori
2. Абу Али ибн Сина (Авицена). Канон врачебной науки. Кн. 1. - Ташкент, 1954. - 546 с
3. Rahmonqulov U., O.N. Avalboyev. O'zbekiston kovraklari (Biologiyasi, resurslari va ulardan oqilona foydalanish). –T., 2016